

Har gektarda bitta oila ish bilan ta'minlanadi

Ellikqal'a tumani hokimi press-konferensiyada investisiya loyihalari bo'yicha jurnalist va blogerlarga ma'lumot berdi.

"Ellikqal'a sahovati" MChJga "Tuproqqal'a" mahalla fuqarolar yig'ini hududidan uzumzorlar tashkil qilish uchun 1000,0 hektar yer maydoni ajratib berilgan bo'lib, loyiha 2 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda 1000 hektar maydonda uzum plantasiyalari tashkil qilinib, 1000 dan ortiq yangi ish o'rnlari yaratiladi (har gektarda bitta olla ish bilan ta'minlanadi). Ikkinci bosqichda plantasiyalarda yetishtirilgan uzumdan 35 ming dekalitr konyak, vino mahsulotlari ishlab chiqarish zavodi ishga tushiriladi va 55 ta yangi ish o'rni yaratiladi hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlar asosan eksportga yo'naltiriladi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Bugungi kunda korxona tomonidan 500,0 hektar maydonda uzumning bayon shirin, qorakishmish, mers, kurjeniskiy, reksoteli, vinikabreniy va toypi uzum navlari ekildi va 300 dan ortiq aholining bandligi ta'minlandi. Shuningdek mazkur korxona Italiyaning "Della Toffola S.R.A" kompaniyasi bilan qiymati 2 mln 970 ming yevro bo'lgan zamonaviy uzumni qayta ishlash uskunalari yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzoladi.

QR Vazirlar Kengashi Axborot xizmati